

INGLIZ TILIDAGI EFIMIZMLARNING SEMANTIK JIHATLARI

Elmurodova Tursunoy,
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18490990>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi evfemizmlarning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Evfemizm – salbiy, noqulay yoki tabu mazmunga ega bo‘lgan so‘z va iboralarni muloyim, yumshoq yoki ijtimoiy ma‘qul variantlar bilan almashtirish hodisasi sifatida izohlanadi. Tadqiqotda evfemizmlarning ijtimoiy vazifalari, xususan, yuzni saqlash (face-saving), o‘dov doirasida muloqot qilish, qiyin mavzulardan chetlab o‘tish hamda ijobiy konnotatsiya yaratish kabi funksiyalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, evfemizmlarning asosiy semantik jarayonlari – metafora, metonimiya, sindekdoha, perifraza, hiperbola, remodelling kabi figurativ vositalar orqali shakllanishi yoritiladi. Maqolada evfemizmlarning pragmatik va stilistik roliga, ularning kommunikativ samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning jamiyatdagi nutqiy madaniyat, ijtimoiy me‘yor va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, tabu, semantika, stilistika, metafora, metonimiya, perifraza, kommunikativ pragmatika, muloyim nutq, ijobiy konnotatsiya, yuzni saqlash, figurativ vositalar, remodelling, nutq madaniyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические и стилистические аспекты эвфемизмов в английском языке. Эвфемизм определяется как мягкое, вежливое или социально приемлемое выражение, используемое вместо прямого, резкого или табуированного термина. В исследовании анализируются коммуникативные функции эвфемизмов, включая сохранение лица, поддержание вежливости, избегание социально чувствительных тем и создание положительных коннотаций. Также рассматриваются основные семантические механизмы формирования эвфемизмов, такие как метафора, метонимия, синекдоха, перифраз, гипербола и лексическое ремоделирование. Особое внимание уделяется прагматической и стилистической роли эвфемизмов и их вкладу в повышение эффективности коммуникации. Результаты исследования показывают, что эвфемизмы тесно связаны с культурными нормами, социальными ценностями и речевым этикетом, выступая важными лингвистическими средствами, формирующими социальное взаимодействие и дискурс.

Ключевые слова: эвфемизм, семантические аспекты, стилистические аспекты, табу, стратегия вежливости, образная речь, метафора, метонимия, перифраз, лексическая замена, прагматические функции, коммуникация, социальные нормы, язык и культура.

Abstract: This article examines the semantic and stylistic aspects of euphemisms in the English language. A euphemism is defined as a mild, polite, or socially acceptable expression used in place of a direct, harsh, or taboo term. The study explores the communicative functions of euphemisms, including face-saving, maintaining politeness, avoiding socially sensitive topics, and creating positive connotations. It also discusses the main semantic mechanisms through which euphemisms are formed – such as metaphor, metonymy, synecdoche, periphrasis, hyperbole, and lexical remodeling. Special attention is given to the pragmatic and stylistic roles of euphemisms and their contribution to effective communication. The findings show that euphemisms are deeply connected to cultural norms, social values, and speech etiquette, serving as important linguistic tools that shape social interaction and discourse.

Keywords: euphemism, semantic aspects, stylistic aspects, taboo, politeness strategy, figurative language, metaphor, metonymy, periphrasis, lexical substitution, pragmatic functions, communication, social norms, language and culture.

Kirish. Til foydalanuvchilari bir-biri bilan turli soʻzlar va ifodalar orqali muloqot qiladilar. Bu ifodalar, holatga qarab, ochiq (toʻgʻridan-toʻgʻri) yoki yashirin (bilvosita) qoʻllanadi. Buning sababi shundaki, baʼzi nutq harakatlari “yuzni saqlash”ga xizmat qiladi, boshqalari esa “yuzga tahdid soluvchi” xarakterga ega boʻlishi mumkin. Koʻpincha muloqot ishtirokchilari oʻzaro ijtimoiy uygʻunlikni (maslahat, hurmat, madaniy muvozanat) saqlab qolish uchun qoʻpol yoki noqulay soʻzlarni yumshoq va xushmuomala ifodalar bilan almashtirishga intiladilar. Tilning ana shu kuchli mexanizmi “evfemizm” deb ataladi.

Ingliz tilining muhim jihatlaridan biri – evfemizmlardir. U asosan odamlar, siyosatchilar, jurnalistlar, yozuvchilar va boshqa koʻplab nutq egalari tomonidan turli kommunikativ funksiyalarni bajarishda qoʻllaniladi. Evfemizmlar kundalik hayotdagi koʻplab voqeliklarni – hamkorlik muhiti, keng kommunikatsiya, ijtimoiy muloqot kabi jarayonlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun evfemizmlarning mazmunini toʻgʻri anglash ana shunday ijtimoiy voqeliklarni tushunishning muhim talablaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Evfemizmlar masalasi tilshunoslikda semantika, stilistika va pragmatika doirasida keng oʻrganilgan. Allan va Burridge (2006) evfemizmlarni tabu va xushmuomalalik bilan uzviy bogʻliq hodisa sifatida talqin qilsa, Rawson (1981) va Holder (2002) ularni “ikki maʼnoli nutq” va “yashirish strategiyasi” sifatida izohlaydi. Abrams (2005) evfemizmlarning stilistik vazifalariga urgʻu beradi, Fromkin va Rodman esa ularni nutqiy ehtiyotkorlik vositasi sifatida baholaydi. Ushbu tadqiqotlarda evfemizmlarning madaniy, ijtimoiy va kommunikativ ahamiyati asosiy yoʻnalish sifatida koʻrsatib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv) va tahliliy metodlardan foydalanildi. Ingliz tilidagi evfemizmlar semantik va stilistik jihatdan kontekstual tahlil asosida oʻrganildi. Shuningdek, pragmatik yondashuv orqali evfemizmlarning kommunikativ vazifalari va yuzni saqlash strategiyalaridagi roli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, lugʻatlar va nazariy manbalar qiyosiy asosda tahlil etildi.

Tahlillar va natijalar. Evfemizmlarni talqin qilish baʼzan qiyinchilik tugʻdiradi, chunki ularning koʻpi oʻz tabiatiga koʻra noaniq yoki bir maʼnoli emas. Bu esa tinglovchi tafakkurini notoʻgʻri yoʻnalishga burib yuborishi mumkin. Foydalanuvchining evfemik ifodalardagi nazarda tutilgan (implikaturalangan) maʼnosini toʻgʻri tushunish uchun ularni kontekstual tahlil qilish muhim rol oʻynaydi.

Evfemizm yaratish jarayonida soʻzlovchi odatda Graysning hamkorlik tamoyiliga mansub kamida bitta yoki bir nechta maksimalarni (miqdor, sifat, relevanti, uslub) qasddan buzadi. Natijada konversatsion implikaturalar vujudga keladi. Demak, maksimalarni buzish nafaqat struktura va diskurs tanlovlarida, balki yuzga kelishi mumkin boʻlgan “yuz yoʻqotish”ning oldini olishga xizmat qiluvchi leksik tanlovlarda ham muhim rol oʻynaydi.

Soʻzlovchilar koʻplab sabablarga koʻra evfemizmlardan foydalanadilar, ulardan biri–xushmuomalalikdir. Evfemizmlar qoʻpol yoki odobsiz ifodalarni yumshatishda ham qoʻllanadi. Evfemizmlar tildan foydalanishning umumiy hodisasidir; odamlar qoʻrqinchli boʻlgan voqealar (urush, kasallik, oʻlim va boshqalar) haqida gapirayotganda ularni keng qoʻllaydilar. Antropologik nuqtai nazardan, “ismni aytish–ana shu kuchga ega mavjudotni chaqirish” degan tasavvur mavjud boʻlgan. Shuningdek, biz tabu bilan bogʻliq tushunchalarni evfemizmlar orqali ifodalaymiz, chunki instinktiv ravishda evfemizm bizni tabu obyektini taʼsiridan maʼlum darajada uzoqlashtiradi deb hisoblaymiz.

Evfemizmlarning yana bir vazifasi – obyektning ijtimoiy qiymatini oshirishdir (masalan, teacher oʻrniga educator, lawyer oʻrniga attorney ishlatilishi). Ammo umuman olganda, evfemizmlar jamiyatda toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalash qiyin boʻlgan maʼnolarni yumshoq shaklda ifodalash uchun qoʻllanadi [2]. Mazkur maqolaning maqsadi–ingliz tilidagi evfemizmlarning semantik va stilistik jihatlarini yoritishdan iborat. Umuman olganda, evfemizm – yoqimsiz yoki noqulay holatni ifodalashda qoʻpol yoki keskin boʻlgan soʻz oʻrniga ishlatiladigan muloyimroq, bilvosita ifodadir.

Evfemizm tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha taʼriflangan boʻlsa-da, ularning mazmuni asosan bir xil. Evfemizm – aniq va toʻgʻridan-toʻgʻri ifodaning oʻrnini bosuvchi yoqimli, yumshoq yoki bilvosita soʻz yoki ibora. Abrams (2005) taʼrifiga koʻra, “*Evfemizm – ijtimoiy jihatdan noqulay yoki nomaqbul boʻlgan qoʻpol ifoda oʻrniga qoʻllanadigan zararsiz ibora*”.

Evfemizmlar, odatda, “tabu” yoki nozik ijtimoiy mavzular haqida gapirganda ishlatiladi. Ijtimoiy muloqotda ayrim ifodalar koʻpincha yumshatiladi, yaʼni toʻgʻridan-toʻgʻri aytilishi mumkin boʻlgan maʼno yoqimliroq shaklda almashtiriladi. Bu muloqot uslubi baʼzan haqiqatning bir qismini yashiradi. Shuning uchun evfemistik tilni “qochish tili”, “ikkiyuzlamachilik tili”, “iffatparastlik tili” yoki “yashirish tili” deb ham ataydilar [8]. Bu aylanma ifodalar xushmuomalalik bilan bevosita bogʻliq: “*xushmuomala boʻlgan narsa – hech boʻlmaganda zararsiz, eng yaxshisi esa eshituvchiga yoqimli; haqoratli narsa esa – qoʻpol va noxushdir*” [3]. Evfemizmlar yordamida biz tinglovchi uchun noqulay boʻlgan maʼnoni yumshatib ifodalaymiz. Baʼzan bu ortofemizm (yaʼni aniq va neytral ifoda) oʻrniga yumshoq shaklni ishlatishdir, baʼzan esa disfemizm – qoʻpol yoki pesimistik ifodadan qochishdir.

Fromkin va Rodman (1993) evfemizmni “tabu soʻzni almashtiruvchi, yoki qoʻrqinchli yoki yoqimsiz mavzulardan qochish uchun ishlatiladigan soʻz yoki ibora” deb taʼriflaydi. Webster lugʻatida evfemizm “xafa qilishi yoki noxush maʼnoni anglatishi mumkin boʻlgan ifodaning oʻrniga yoqimli yoki zararsiz iborani qoʻllash” deb izohlanadi.

Soʻzlovchilar koʻpincha omma oldida nutq soʻzlar ekan, oʻz fikrlarini ehtiyotkorlik bilan, bilvosita yoki ayrim tafsilotlarni yashirgan holda yetkazish uchun evfemizmlardan foydalanadilar. Evfemizmlar odatda anʼanaviy tarzda nojoiz hisoblangan tabu mavzularidan qochish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday tabu mavzular – jinsiy

organlar/jinsiy munosabatlar, najas chiqarish, etnik farqlar kabi suhbatda odatda ko'tarilmaydigan masalalardir. Shuningdek, til – muloqot vositasi bo'lgani uchun har doim ham barcha vaziyatlarda bir xil tarzda ishlatilmaydi; unda turli uslublar mavjud. Shulardan biri – evfemizatsiya. Ya'ni, evfemizmlar ma'lum bir vaqt va vaziyatda so'zlovchining faol pragmatik strategiyasi sifatida foydalaniladigan ifodalardir.

Evfemizmlar umumiy tarzda ikki turga bo'linadi: ijobiy va salbiy evfemizmlar [10].

Ijobiy evfemizmlar – uslubiy yoki bo'rttiruvchi evfemizmlar deb ham ataladi. Ular referentni kattalashtirib, ulug'lab ko'rsatadi, ya'ni narsa-hodisa haqiqatdagidan ko'ra muhimroq, obro'lroq bo'lib ko'rinadi.

Salbiy evfemizmlar esa salbiy mazmunlarga ega bo'lgan hodisalarning (urush, mastlik, jinoyat, qashshoqlik va boshqalar) ma'nosini yumshatadi, pasaytiradi, yashiradi. Ular himoyaviy xarakterga ega bo'lib, odamlar to'g'ridan to'g'ri aytishni xohlamaydigan mavzularni yumshoq shaklda ifodalaydi. Evfemizmlar va tabu – bir tanga ikki tomoni: ular bir xil hodisaga ishora qiladi, ammo evfemizmlar tabuga qaraganda ancha muloyim, e'tiborli ifodadir.

Evfemizmlar qo'pol, haqoratli yoki noxush bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan so'zlarning o'rni bosgani uchun, ular ma'nodosh tabu so'zlar bilan bir xil referentga ega, biroq ko'rinishidan odobsiz emas. Evfemizmlar ma'noni buzadi yoki yumshatadi, iborani yoqimliroq qiladi. Evfemizatsiya odatda ma'noni yashirish maqsadidan kelib chiqadi – shuning uchun ba'zan u “qochish, ikkiyuzlamachilik, puritanlik yoki aldash tili” deb ham ataladi.

Evfemizmlar faqat til tanlovi yoki so'z o'zgartirish bilangina chegaralanmaydi – ular til foydalanuvchisining ijtimoiy idrokiga ta'sir qiladi, semantik tanlovlarga yo'n beradi. Bir xil harakatni turlicha nomlash natijasida semantik muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Evfemizatsiya dezinformatsiya bilan ham bog'liq – bu haqiqatning ataylab buzilishi yoki yashirilishidir [7]. Masalan:

- free enterprisers – kapitalistlar
- profit – tejab qoldirilgan pul
- building up labor reserves – ishsizlik
- dismissal – ishdan bo'shatish

Bu ifodalar evfemizmlar emas, balki dezinformatsiya, chunki ular haqiqatni yashirish uchun ishlatiladi. Bunga qarshi haqiqiy evfemizmlar mavjud:

- a four-letter word – qo'pol so'z
- a woman of a certain type – fohisha
- to glow – terlash

Bir xil semantik jarayon – meiozis (ma'noni kamaytirish) – evfemizatsiyada ham, yolg'on yoki manipulyativ ma'no yaratishda ham uchrashi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada ingliz tilidagi evfemizmlarning semantik va stilistik jihatlarini yoritildi. “Evfemizizm” tushunchasi izohlandi va tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:

Evfemizatsiya ingliz tilida ham, boshqa tillarda ham keng tarqalgan hodisa hisoblanadi.

Evfemizmlar tabu mavzularni yumshatish va ijtimoiy “yuzni saqlash” (face-saving) uchun qo‘llaniladi.

Semantik nuqtayi nazardan, evfemizmlar ifodaning haqiqiy mazmunini yashiradi yoki yumshatadi, uni eshituvchiga yoqimliroq qiladi.

Boshqa vazifalarda esa evfemizmlar nutq uslubini belgilovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Evfemistik ishlatilgan so‘z metafora xususiyatini kasb etadi, ya’ni uning asl ma’nosi pasayadi.

Evfemizmlar har doim tabu mavzudan qochish natijasi bo‘lavermaydi, balki muayyan nutqiy vaziyatga mos ravon, muloyim ifodani yaratishning stilistik vositasi sifatida ham qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abrams, M. H., and Geoffrey Galt Harpham. A Glossary of Literary Terms. Thomson Higher Education, 2005.
2. Alkire, Scott. “Introducing Euphemisms to Language Learners.” The Internet TESL Journal, 2002, iteslj.org/Lessons/Alkire-Euphemisms.html.
3. Allan, Keith, and Kate Burridge. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press, 2006.
4. Bakhtiar, Mohsen. “Communicative Functions of Euphemisms in Persian.” The Journal of International Social Research, 2012.
5. Burchardt, Anke, and Brigitte Nerlich. Tropical Truth(s): The Epistemology of Metaphor and Other Tropes. De Gruyter, 2010.
6. Enright, D. J. In Other Words: The Meanings and Memoirs of Euphemisms. Michael O’Mara Books, 2005.
7. Galperine, I. R. Stylistics. Vyschaya Shkola, 1977.
8. Holder, R. W. How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms. Oxford University Press, 2002.
9. Katamba, Francis. English Words: Structure, History, Usage. Routledge, 2005.
10. Rawson, Hugh. A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. Crown Publishers, 1981.